

HARBIY OLIY TA'LIMDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA HARBIY O'QITUVCHINING O'RNI

Majitov Azimjon Mahammadaliyevich

*Harbiy boshqaruvva liderlik kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi.*

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar

Innovatsion ta'lim, pedagogik mahorat, pedagogik takt, ta'lim sifati.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qitish sifatini oshirishda pedagogik omillar ta'siri, jumladan, pedagogik mahoratni oshirib borish zaruriyati asoslangan. Oliy Harbiy ta'lim muassasasida ham bu yo'nalishning dolzarbligi yoritilgan.

Harbiy oliy ta'limda o'qitish sifatini oshirishda davr, bilim oluvchi ehtiyoji va talablaridan kelib chiqib yangicha yondashuvlar qilish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. Shu ma'noda bugun rivojlangan mamlakatlarning harbiy ta'lim tizimini o'rganish va tajribalarini amalda qo'llash tajribasi Mudofaa vazirligi tizimida dolzarb masalaga aylangan¹.

Ta'lim-tarbiya butun insoniyat tarixida muhim o'rin va ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda ta'lim va tarbiyada novatorlik yondashuvi jadal rivojlanayotganligi ta'lim muassasasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridandir. O'zbekistonni modernizatsiyalash sharoitida "ta'lim" tushunchasi mazmunini tubdan qayta idrok etish zarur. Bu uzluksiz ta'limning o'xshash tizimi yordamida ijtimoiy va kasbiy moslashgan yaxlit shaxs mazmunining maqsadi, vazifalari, metodlari va vositalari shakllantirishni qayta idrok etishni bildiradi.

Barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va shu asosda uning mazmunini takomillashtirish ijtimoiy zaruriyat sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis deputatlari va Senat a'zolariga murojaatnomasida ham: "Yangi o'n yillikka qadam tashlar ekanmiz, eng avvalo ta'lim sohasini tubdan o'zgartirmog'imiz, jaholatga qarshi ma'rifat shiori ostida ilm-fan, ma'rifatni rivojlantirmog'imiz darkor"², - deb ta'kidladi.

Ta'lim muassasalari, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun, rivojlanish yo'lidan borishi kerak. Aksariyat amaliyotchi xodimlar buni anglab yetgan holda, eskicha yondashuvlarni takomillashtirishni emas, balki ta'lim tizimini innovatsion strategiya ruhida rivojlantirishni tan olmoqdalar. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi innovatsion harakat jamiyatdagi real o'zgarishlarni va shaxs

¹ Satib-Aldiyev A.A. Tajriba asosida o'qitish modeli.- T., 2018

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis deputatlari va senatorlarga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.

ehtiyojini hisobga olish yo'naltirilgan.

Innovatsion ta'lim strategiyasi ta'lim sifatini boshqarishda alohida boshqaruvchilik yondashuvini taqozo etadi. Quyidagilar bunday boshqaruvning asosiy ob'yektlari hisoblanadi:

- Pedagog mutaxassis, fuqaro shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda professional tashkilotchi hamda yordamchi sifatida;
- Ta'limning mazmuniy negizi;
- Pedagogik jarayonni tashkil etish texnologiyasi va boshqalar.

Ta'lim sifati – ta'lim jarayonining jamiyatdagi holati va natijadorligini, uning shaxsning fuqarolik, turmush va kasb sohasidagi bilimdonligini rivojlantirishdan jamiyat (turli ijtimoiy guruhlar) ehtiyojlari va kutgan natijalariga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya demakdir. Shuningdek, ta'lim sifati – ta'limning rang-barang ehtiyojlarga, maqsadlarga, talablarga, me'yorlar (standartlar) ga muvozanatli muvofiqligi. Ta'limning iyerarxik uyushgan, ijtimoiy ahamiyatli muhim xususiyatlari (tavsifi, o'lchovlari)ning tizimli yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimi faoliyatini zamon talablari asosida tashkil qilishda oliy harbiy ta'lim muassasalari muhim o'rin tutadi. Harbiy kadrlarni amaliyot uchun tayyorlab, harbiy ta'lim-tarbiyani rivojlanishi aynan shu dargohlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ijobiy sifatlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish foydadan xoli emas.

Ta'lim sifati ta'lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h.k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan belgilanadi.

Kadrlarni tayyorlash va raqobatbardoshligi sifatini oshirish yo'nalishlari majmui orasida mutaxassis tayyorlash sifatini to'g'ri yo'naltirish, o'lchash va baholashni tanlash alohida o'rin tutadi.

Shu maqsadda:

birinchidan, fan, texnika, texnologiya, ijtimoiy soha rivojlanishining u yoki boshqa tendentsiyalarini ta'minlash uchun mutaxassislarining qanday sifat ko'rsatkichlari eng muhim;

ikkinchidan, mutaxassis tayyorlashda ham, ularning kasbiy faoliyati jarayonida ham talab etilayotgan sifat ko'rsatkichlarini qanday metodlar bilan obyektiv, aniq va ishonchli o'lchash hamda baholash mumkin, - degan kamida ikki savolga javob berish zarur.

Bunda mutaxassisning kasbiy sifatlarini "bilim", "malaka" va "ko'nikma" tushunchalari bilangina tasavvur qilish yetarli emasligini nazarda tutish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislar ta'lim sifatini oshirish uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazishadi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati ta'lim sifatining bilimli pedagoglarga, ularning mahoratiga hamda yangi pedagogik texnologiyalarga bog'liqligini ko'rsatmoqdalar.

Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik mahoratning o'rni katta. **Mahorat** – bu muayyan vaziyatda o'ziga xos harakat qilish demakdir. Bu bilimdonlik yoki qobiliyatning, ishga yanada umumiyroq tayyorgarlik ko'rilganlikning yoki o'ziga xos vaziyatda ish bajarish imkoniyatining qaror topishidir. Mahorat tushunchasi, shuningdek, o'zlashtirilgan bilim va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (dars berishni ham) shu sohada mavjud qonun va qoidalar asosida kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish demakdir³.

Har sohada bo'lgani kabi, harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham pedago-gikaning o'rni oshib bormoqda. Harbiy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo'yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma'lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo'lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga

³ B.Ziyomuhammadov. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent - «TIB-KITOB», 2009

ega bo'lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli inson, o'z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o'z bo'ysunuvchilariga tarbiya va ta'lim bera oladigan pedagog bo'lishi zarur. Ofitser va serjant kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, intellektual jihatdan yetuk, strategik fikrlay oladigan ofitser kadrlar, shuningdek, qo'l ostidagi bo'linmalarni samarali boshqarishga, ularda sog'lom axloqiy-ruhiy vaziyatni saqlashga qodir professional serjantlarni tayyorlaydigan harbiy bilim yurtlari va serjantlar maktablari faoliyatini zamon talablari va standartlarini e'tiborga olgan holda tubdan yaxshilash asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Harbiy-pedagogik jarayon murakkab ijtimoiy hodisadir. Uning mohiyati harbiy mutaxassislarini, bo'linma va qismlarni mamlakatni qurolli himoya qilish, jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlash bo'yicha komandirlar, boshliqlar, tarbiyachilarning maqsadli tashkiliy va ta'lim-tarbiyaviy faoliyati bilan belgilanadi.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik takt, ya'ni ofitserning har qanday, hatto konfliktli vaziyatlarda ham bo'ysunuvchilar bilan bo'ladigan munosabatida pedagogga xos bosiqlik, vazminlik va aql-idrok bilan o'zini tuta olish qobiliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazishda quyidagi qobiliyatlar talab qilinadi:

1. Tashkilotchilik qobiliyati – bo'linma pedagogik jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantira olish va o'z ishini to'g'ri tashkil eta olish;
2. Muomala qobiliyati – bo'ysunuvchilar, boshliqlar, turli toifadagi harbiy xizmatchilar va ishchi-xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari, askarlarning ota-onalari, jamoatchilik vakillari bilan pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o'zaro munosabatlar o'rnatish;
3. Didaktik qobiliyati – o'quv materialini tushuntira olish, tinglovchi ongiga yetkaza bilish, ilmiy izlanuvchanlik, fan va texnika yangiliklaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olish qobiliyati;
4. Kuzatuvchanlik qobiliyati – ofitserning o'z bo'ysunuvchilari va atrofida tilarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, ulardagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni seza olish qobiliyati;
5. Nutq qobiliyati – nutq yordamida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifoda eta olish qobiliyati;
6. Obro' orttira olish qobiliyati – bo'ysunuvchilariga va xizmatdoshlariga o'zining amaliy faoliyatiga, xizmat burchiga mas'uliyatli munosabati, muomalasi, kundalik turmushdagi va oilasidagi ibratli xulqi orqali bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda o'zi haqida ijobiy fikr uyg'ota olish qobiliyati;
7. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z faoliyatining, harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlab, muvaffaqiyatga erishishga ishonch qobiliyati;
8. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning diqqatning barcha xususiyatlarini, hajmi, kuchini idora qilish, safarbar eta olish qobiliyati.

harbiy xizmatchilar ta'limi va tarbiyasi jarayonini tashkil etish va amalga oshirishda ana shunday o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik mahorat - bu pedagogning shaxsiy (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatdir. U o'z o'quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik va metodik tayyorgarligida, ta'lim oluvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo'llashida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari

asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o'zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma'naviy – axloqiy fazilatlarini o'zida tarkib toptirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell, F. (2018). The critical role of the instructor in military education. *Journal of Military Education*, 42(3), 5-14. [This article discusses the importance of effective teaching in military education and the qualities of successful instructors.]
2. Brown, A. S., & Robinson, S. J. (2021). Fostering critical thinking and problem-solving skills in military leadership development. *Military Psychology*, 33(4), 342-358. [This article examines how military instructors can promote critical thinking and problem-solving skills in training.]
3. Caldwell, R. D., & Smith, J. L. (2020). The impact of instructor feedback on student performance in military training. *Journal of Instructional Psychology*, 47(2), 123-131. [This study explores the influence of instructor feedback on student success in military training programs.]
4. Johnson, K. A., & Williams, T. R. (2022). Developing a culture of excellence: The role of military instructors in promoting professionalism and ethical conduct. *Journal of Military Leadership*, 18(1), 45-57. [This article focuses on the importance of military instructors in cultivating professionalism and ethical behavior among trainees.]
5. Peterson, M. D., & Jones, C. A. (2023). The use of technology in military education: A review of best practices. *Journal of Educational Technology*, 50(2), 153-168. [This article examines the role of technology in modern military education and how instructors can effectively integrate it into their teaching.]
6. Allen, R. (2019). *The art of military instruction: A guide for effective teaching and training* (2nd ed.). Routledge. [This book offers practical guidance and strategies for military instructors on improving their teaching skills.]
7. Hicks, D. L. (2017). *Military leadership: A comprehensive guide to developing effective leaders* (3rd ed.). McGraw-Hill Education. [This book discusses the importance of leadership development in military education and how instructors can contribute to this process.]
8. United States Department of Defense (2019). *Report on the state of military education in the United States*. Washington, DC: Author. [This report provides an overview of the current state of military education, including recommendations for improvement.]
9. Military Education and Training (MET) Association (2023). *Military Education and Training: A Global Perspective*. Retrieved from <https://www.meta.org/> [This website provides resources and information on military education and training worldwide, including information on instructor development.]
10. Smith, J. (2018). *The importance of military instructor training: A case study of the US Army*. Unpublished master's thesis, University of California, Berkeley. [This thesis examines the importance of ongoing training and development for military instructors.]